


ISSN 2181-6833



9 772181 683 301

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**MS**  

---

**2021**



ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**MAXSUS SON  
(2021-yil, dekabr )**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2021**

# PEDAGOGIK MAHORAT

## Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021, Maxsus son

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Elektron manzil: ped\_mahorat@umail.uz

### TAHRIR HAY'ATI:

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas'ul kotib:** Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muiyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

## MUNDARIJA

<b>Alijon HAMROEV.</b> Modeling activities of teachers when designing creative activities of students .....	7
<b>Matlab TILAVOVA.</b> Ta'lim jarayonida gender tenglik va farqlarni hisobga olishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari.....	13
<b>G'ulom SAYFULLAYEV, M. S.SAFAROVA, I. S.STEMIROVA.</b> Markaziy osiyolik allomalarning tabiat haqidagi asarlaridan boshlang'ich sinf tabiiy fanlarni o'qitishda foydalanish .....	18
<b>Fayzullo QOSIMOV, Mavluda QOSIMOVA.</b> Ikki sonning yig'indisi (yoki ayirmasi) va karrali nisbatiga ko'ra shu sonlarni topishga doir masalalar .....	20
<b>Fayzullo QOSIMOV, Mavluda QOSIMOVA.</b> Ko'paytirish va bo'lishga doir mashqlar tizimini tuzish bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun usuliy tavsiyalar .....	24
<b>Hilola SAFAROVA, Nigora SAFAROVA.</b> Navoiy jonga muhtoj ermas, ammo... ..	28
<b>Nigora ADIZOVA.</b> Qiziqmachoqlarda hayot sabog'ining o'ziga xos talqini .....	30
<b>Nigora ADIZOVA, Hilola XUDOYBERDIYEVA.</b> "Qiziqmachoq" atamasining mohiyati va janriy xususiyatlari .....	33
<b>Mohinur SAIDOVA.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining masofaviy ta'limdan foydalanishining pedagogik va didaktik imkoniyatlari .....	38
<b>Mohinur SAIDOVA, Niginabonu IDIYEVA.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqt tushunchasi bilan tanishtirish.....	42
<b>Nodira ADIZOVA.</b> Toponimlar tarkibida topoasos, topoformant hamda indikator tushunchalari (Buxoro tumani misolida).....	47
<b>Nodira ADIZOVA, Dilsora TOSHPO'LATOVA.</b> Buxoro tumani toponimlarining tasnifi masalasi .....	49
<b>Shoira BOBOYEVA.</b> Metodikada ona tili ta'limini modellashtirishga innovatsion yondashuv .....	51
<b>Халима АРИПОВА, Шоира БАБАЕВА, Наталья РОЗИКОВА.</b> С.Н.Иванов – как поэт-переводчик восточной поэзии .....	58
<b>Шоира БАБАЕВА, Анастасия АЛИМОВА.</b> Влияние международного исследования girls на развитие речи и грамотность чтения младшего школьника .....	64
<b>Шоира БАБАЕВА, Насиба ФАЗЫЛОВА.</b> Развитие речи младших школьников с использованием различных словарей .....	68
<b>Mehriniso HAKIMOVA.</b> Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda matematik tasavvurlarni shallantirishda uzviylikni ta'minlashga doir metodik ta'minot.....	72
<b>Саида ГАФАРОВА, Феруза ХАЛИЛОВА.</b> "Прокариотлар морфологияси ва хужайра тузилиши" мавзусини ўқитишда педагогик технологиялардан фойдаланиш самарадорлиги .....	79
<b>Феруза ХАЛИЛОВА, Шодия НУРМАМАТОВА, Нилуфар ОБЛОҚУЛОВА.</b> Преподавание биологии в школе .....	86
<b>Shoira QURBONOVA.</b> Texnologiya darsi jarayonida talabalarning mehnat tarbiyasini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish .....	89
<b>Gavhar SAIDOVA.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uzunlik haqida tasavvurlarni shakllanritish, uzunliklarni o'lchash malakalarini hosil qilish .....	92
<b>Mashxura YULDASHEVA.</b> Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayonning mazmuni .....	94
<b>Mashxura YULDASHEVA.</b> Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirishning shakl, usul va metodlari .....	97
<b>Yulduz Pulatova.</b> Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons .....	101
<b>Mahfuza SADULLOYEVA, Maxtobxon XAYRIYEVA.</b> Maktab o'quvchilari orasida deviant xulq-atvor sabablari, shakllari va korreksion ishlar .....	107
<b>Adiba BAHRONOVA.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashga tayyorlashda darsdan tashqari ish shakllari .....	110
<b>Saodat QODIROVA.</b> Qadimiy maqollar .....	113
<b>Dilshod DAVRONOV.</b> Zamon bilan hamnafas yashagan alloma .....	115
<b>Yulduz NUROVA.</b> Etnologiya va etnografiya munosabati .....	118
<b>Malika XAYDAROVA.</b> Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari .....	122
<b>Nodirabegim RAJABOVA.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quvchilarga figura yuzi tushunchasini o'rgatishda tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish.....	125

## ZAMON BILAN HAMNAFAS YASHAGAN ALLOMA

*Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning ilm-fan, ta'lim-tarbiyaga doir fikr va mulohazalari bugungi kun nuqtayi nazaridan tahlil qiligan. Ta'lim sohasida hozirgi kunning dolzarb muammolariga e'tibor qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, ma'rifat, taraqqiyot, ma'naviyat, jadidchilik, hurriyat, zamonaviy.

*В статье анализируются взгляды и взгляды Махмудходжи Бехбуди на науку, образование с точки зрения сегодняшнего дня. В центре внимания актуальные вопросы образования.*

**Ключевые слова:** образование, воспитание, просвещение, прогресс, духовность, джадидизм, свобода, современность.

*The article analyzes the views and views of Mahmudhoji Behbudi on science, education from the point of view of today. The focus is on topical issues of education.*

**Key words:** education, upbringing, enlightenment, progress, spirituality, Jadidism, freedom, modernity.

*Sening tarixiy davroning, sening osoriy urfoning,  
Sening noming, sening joning jahon qoldiqcha qolmasmu?*

**Sadridin Ayniy**

**Kirish.** XX asr o'zbek adabiyoti va publitsistikasi haqida ma'lumot berganda taniqli o'zbek mutafakkiri Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodiga har bir ilm ahli murojaat qilmasadan iloji yo'q. Chunki bu davr pedagogikasi, adabiyoti, san'ati, madaniyati, publitsistikasi bevosita Behbudiy ijodiy faoliyati bilan bog'liq. Markaziy Osiyodagi eng ilg'or fikrlovchilar harakati – jadidchilikning Turkistondagi asoschisi va rahnamosi ham M.Behbudiy hisoblanadi. Ijodkor juda qisqa davr mobaynida yashab faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, u yaratgan boy ijodiy, ilmiy meros butun bashariyatga daxldordir. *“XX asr - insoniyat tarixidagi eng ulug' asrlardan biri. Bu asrda qanchalik ko'p qon to'kilgan, qanchalik nohaqliklar va adolatsizliklar ro'y bergan bo'lmasin, insoniyat xuddi shu asrda kelajak sari qadam tashladi. XX asr o'zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti bilan mustahkam aloqa o'rnatdi. Bu adabiyot xalq va jamiyatni o'z ortidan yetaklab, ularni hurriyat va milliy taraqqiyot manzillariga olib borishga intildi va bu intilishda muayyan yutuqlarga erishdi”* [4]. Taniqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovga bu fikrlarni yozishda Behbudiy hayoti va ijodiy faoliyati turtki bo'lgan bo'lsa ne ajab.

**Asosiy qism.** Behbudiy ijodiy merosini o'rganish, targ'ib qilish u hayotlik chog'idayoq boshlangan. Allomaning XX asr boshlarida ta'lim va tarbiyaga doir muammo va g'oyalari mana oradan bir asr o'tgan bo'lsa-da o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Mahmudxo'ja Behbudiy publitsist sifatida 300 dan ortiq maqolalar yozgan. Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi bu maqolalarning aksariyati o'zbek xalqining zamonaviy yo'nalishdagi milliy tafakkuri shakllanishida, hayotga, oilaga yangicha qarashlari, talablari tug'ilishida juda katta ta'sir ko'rsatdi. *“Bizni kemirguvchi illatlar”, “Ikki emas, to'rt til kerak”, “Yoshlarga murojaat”, “Teatr nadur”, “Turkiston idorasi”, “Turkistonda maktab jarida”, “Buxoro xonligiga sayohat”, “Buxoroda usuli jaded”, “Ehtiyoji millat”* singari publitsistik maqolalari ana shunday qimmatga ega. Chunoschi, ijodkor o'zining “Oyina” jurnali va “oyina” so'zlarini muqoyasa qilib shunday deydi: *“Oyina” shunday bir narsaki, odam unga o'zini ko'rish, yuzining qandayligini bilish uchun qaraydi. Yuzi turli fizik va psixik omillar ta'sirida qizil, sariq, qora yoki oq bo'lishi mumkin. Kishi oyinaga nogahoniy payqab qolishi mumkin bo'lgan dardlarini davolash uchun qaraydi”*.

Oshkoralik siyosati olib borilayotgan hozirgi paytda ommaviy axborot vositalarining o'zmi beqiyos. Ya'ni shu jamiyatda yashab faoliyat ko'rsatayotgan har qanday kasb egasi tanqidni to'g'ri qabul qilishi kerak. O'z ustida ishlab jamiyat va davlatning rivojlanishi uchun munosib hissa qo'shmo'g'i lozim. Maddohlik va dabdababozlikka asoslangan jamiyat va matbuot jamiyat kelajagiga solingan katta tuzoqdir. Behbudiy maqolalarida ko'tarilgan masala va muammolarning zamirida xalqimizning boshqa mamlakatlardan ortda qolgan taraqqiyot sirlarini ochish, el-yurt kamolotini o'ylash, madrasa va maktablarda ta'limning zamon talablaridan orqada qolayotganligini tahlil qilib, bu sohani xalq turmushini yuksaltirishga xizmat qiladigan darajaga ko'tarish uchun da'vat yotadi. Jumladan, alloma “Yoshlarga murojaat” maqolasida shunday deydi: *“...siz muhtaramlar ham o'z avlodingizni va aziz bolalaringizni, agarda xohlasangizki, sizdan ko'ra taraqqiy etsa, din va millatg'a xizmat etsa. (Din va millatg'a xizmat ilm va oqcha ila bo'lur.) Shu ilmi zamoniyni tahsil qilmoq uchun harakat qilmog'ingiz lozimdur. Hamvatanlarimiz mulkini sotib to'y*

qilganidek siz-da, hatto, lozim bo'lganda mulkingizni sotsangizda o'g'lingizni zamoncha o'qumoqig'a sa'y qilsangiz. To'yga isrof qilinaturg'on oqchalarni o'qumoq yo'lig'a sarf qilsangiz!"[2]. Demak, farzandlarimiz rivojlangan davlatlardagi kabi yashashi uchun birinchi navbatda zamonaviy ilmlardan xabardor bo'lishi kerak. Dabdabali to'ylar qilib, isrofgarchilik qilmasdan, bu xarajatlarni farzandlar ilm o'rganishi uchun sarflash lozimdir. Vatanga xizmat pul va ilm bilandir. Farzandlarimiz qanchalik ilmli bo'lsa, vatanimiz shunchalik boy va qudratli bo'ladi. Eng yaxshi sarmoya - farzandlar kamolotiga tikilgan sarmoyadir.

Behbudiy o'z fikrida davom etar ekan maktab haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi. *"Muhtaram birodarlar! Barchamizga o'ftob kabi ravshan va ayondurki, makotib — taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasi dur. Har millat eng avval, makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko'payturmaguncha taraqqiy yo'lig'a kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradan mahrum qolub, sanoe' va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko'rolmas"*[3]. Haqiqatdan ham, dunyo imoratlarida ichida eng ulug'i maktabdir. Bu fikrlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarga hamohangdir. Chunonchi, Sh.M.Mirziyoyevning *"Maktab bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak"*[1] degan fikrlari bevosita maktab ta'limini rivojlantirishga qaratilgan da'vatdir. Mamlakatimizda tashkil etilgan Mirzo Ulug'bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Is'hoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, "Temurbeklar maktabi", Prezident maktablari Behbudiy kabi ajdodlarimiz orzu qilgan zamonaviy bilimlardan xabardor, yurt ravnaqi uchun munosib hissa qo'shadigan avlodlarni tarbiyalab chiqarsa, ularning orzusi ro'yo bo'ladi.

Behbudiy maqolalarida millat ravnaqi, ishlab chiqarish va bevosita jamiyatning iqtisodiy ahvoriga faol ta'sir ko'rsatadigan ilmiy bilimlarni o'qitishga e'tiborni kuchaytirish hamda ayni vaqtda, halollik va pokizalikka undovchi diniy ilmlardan ham voz kechmaslik, dinni mustahkamlash; turkiy tillardan tashqari, arab va fors tillari qatori rus tilini ham bilish zaruriyati singari davrning muhim muammolarni ko'taradi. *"Biz turkistoniyilarg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, ya'ni o'zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o'zbekiy so'ylashur. Forsiy bo'lsa, madrasa va udabo tilidur. Arabiy til din uchun na daraja lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur. Hadisi sharifdan ma'lum bo'ladurki, janobi payg'ambar o'z sahobalaridan Zayd bin Sobit(g'a) yahudiy xatini o'qub-o'rganmoqg'a buyurgan ekanlar. Va ul janob Umar hazrat nubuvvat panohi ila yahudiy xatini o'rganib hazrat payg'ambarg'a yahudiylardan kelaturgon xatlarni o'qub berar ekanlar"*[5]. Farzandlarimizning ilm va taraqqiyotda zamon bilan birgalikda rivojlanib borishi, bilim va kasb cho'qqilarini yuqoriga olib chiqishlari uchun, albatta, chet tillarni o'rganishlari shart va zarurligini ta'kidlab o'tadi. Bu fikrlar bundan bir asr ilgari aytilgan bo'lsa-da, o'z dolzarbligini hali yo'qotmagan. Chunki ingliz, rus, arab kabi jahon tillarini o'rganmasdan turib, ilm-fanni rivojlantirish mumkin emas. *"Boshqa millatlarga qaralsa ko'rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki dunyoda turmuk uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur"*[6].

**Muhokamalar va natijalar.** Behbudiy yoshlarni Rusiya, Yevropaning markaziy shaharlariga va Arabistonning mashhur oily o'quv yurtlariga yuborib o'qitish kerak, degan tashabbuslarni ilgari suradi. Shundagina Turkiston qoloqlikdan qutula oladi. Behbudiy fikrlari bugungi zamonga bevosita hamohangdir. Iqtidorli farzandlarimizni ilm-fan, madaniyat, sanoat taraqqiy etgan davlatlarga yuborib o'qitish zamon talabidir.

*"Farang va rus donishmandlarining asarlaridan foydalanmoq turkiy yo rusiy va farangiy bilmak ila mumkin bo'lur, na uchunki bugun usmonli, Kafkaz va Qazon turklari zamona ulamosi asarini turkiyig'a tarjima qilib, ko'paytirgandurlar, ya'ni turkiy bilgan kishi zamoni bilur. Turk tilig'a har bir yangi va naf'lik kitoblar barcha tilda tarjima bo'lgandur. Arab madaniyati yunoniy Suqrot, Buqrot, Falotunlardan foydalanganidek, zamoni hozira madaniyati Tolsto'y, Jul Vern, Kepler, Kopernik, Nyutonlardan foydalanur"*[7]. Demak, dunyo ilm-fani darg'alari asarlarini milliy tilimizga tarjima qilish, bu orqali tarjimashunoslik sohasini ham rivojlantirish zarurligini bobokalonimiz o'z publitsistik maqolalarida ta'kidlab o'tadi.

*"Turkiston mevasi, donasi, toshi, tufrog'i, eski nimarsalari Ovrupo bozoriga ketar. Muni Ovrupo dallollari kelib oz bahoga olib ketar, mehnatni biz qilurmiz, foydani ular ko'rar. O'z nimarsamizni Ovrupo bozoriga eltib, yaxshi bahoga sotaturgon bizda bir odam yo'q. Azbaski, Ovrupo ila savdo qilaturgon kishini (o'zi) avval o'n sana zamona ilmi o'qumog'i lozim. Bizda shoxi, adras, beqasam, alocha... bofliklar bor. Agarda bir nafar texnik va muhandisimiz bo'lsa, bu dastgohlarni isloh etar, aholi obod bo'lur"*[8]. Bundan ko'rinib turibdiki, bizning tuprog'imizda ungan har qanday ne'mat boshqa o'lkalarda qadrlanadi. Faqat bu


neʼmatlarni qayta ishlab, sayqal beradigan zavod va fabrikalar kerak. Bu kabi muammolar oʻzbek xalqi ijtimoiy hayotida bir asrdan beri oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan. Muqaddas tuprogʻimizdan olinadigan oltin, kumush, mis, uran, gaz kabi moddalar, paxta, oʻrik, olma, anor, anjir, qovun, tarvuzlarni oʻzimizda qayta ishlab tayyor mahsulot holatida eksport qilishni davrning oʻzi taqozo qilmoqda.

**Xulosa.** Mahmudxoʻja Behbudiy yozib qoldirgan ilmiy meros bugungi yosh avlod uchun bebahodir. Zero, “Zarafshon” gazetasi 1922-yilda Behbudiyni nashri maorif sohasida “Vatanimizning birinchi qahramoni” deyishi bejiz emas edi. Zamondoshlaridan biri bu zotni “Turon - Turkiston quyoshi” deb taʼriflagan edi. Bu quyoshning nurlarini kelgusi avlodlarimizga bus-butun holda, sayqal berib yetkazish har bir ziyolining muqaddas burchiga aylanmogʻi lozimdir.

### Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Maktab taʼlimini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur. -T., 2019-yil 23-avgustdagi videoselektor nutqi.
2. Mahmudxoʻja Behbudiy. Yoshlarga murojaat. “Oyna” jurnali, 1914 yil, 21-son. -390-391-betlar.
3. Mahmudxoʻja Behbudiy. Muhtaram yoshlarga murojaat. “Oyna” jurnali, 1914- yil, 41-son. -970-972-betlar.
4. XX asr mening taqdirimda. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2001-yil, yanvar soni. -21-bet.
5. Mahmudxoʻja Behbudiy. Ikki emas toʻrt til lozim. “Oyna” jurnali, 1913- yil, 1-son. -12-14-betlar.
6. Mahmudxoʻja Behbudiy. Ehtiyoji millat. “Samarqand” gazetasi, 1913- yil 12- iyul.
7. Mahmudxoʻja Behbudiy. Ikki emas toʻrt til lozim. “Oyna” jurnali, 1913- yil, 1-son. -12-14-betlar.
8. Mahmudxoʻja Behbudiy. Ehtiyoji millat. “Samarqand” gazetasi, 1913- yil 12- iyul.





Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017950100079002

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

**PEDAGOGIK  
MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik  
jurnal**

**2021-yil maxsuus son**

**2001-yil iyul oyidan  
chiqa boshlagan.**

**OBUNA INDEKSI: 3070**

**Buxoro davlat universiteti nashri**

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

**Nashr uchun mas’ul:**

**Alijon HAMROYEV.**

**Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.**

**Muharrir: O‘g‘iljon OLLOQOVA**

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 10.01.2022

Bosmaxonaga topshirish vaqti

14.01.2022

Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8

Tezkor bosma usulda bosildi.

Shartli bosma tabog‘i – 22,5

Adadi – 100 nusxa

Buyurtma № 10

Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriiddin Salim Buxoriy” MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Buxoro shahri

M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.